

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

TURDALIYEV TEMUR KAMILOVICH

**G'OVAK KREMNIY VA KREMNIY OKSIDI SIRTIDA ATOM
QATLAMLAB CHO'KTIRISH USULIDA OLINGAN TiO_2 VA ZnO
NANOQATLAMLARINING STRUKTURAVIY VA OPTIK XOSSALARI**

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AVTOREFERATI

TOSHKENT-2025

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physics and mathematics sciences**

Turdaliyev Temur Kamilovich

G'ovak kremniy va kremniy oksidi sirtida atom qatlamlab cho'ktirish usulida olingan TiO₂ va ZnO nanoqatlamlarining strukturaviy va optik xossalari

3

Турдалиев Темур Камилевич

Структурные и оптические свойства нанослоев TiO₂ и ZnO, полученных методом атомно-слоевого осаждения на поверхности пористого кремния и оксида кремния

23

Turdaliev Temur Kamilovich

Structural and optical properties of TiO₂ and ZnO nanolayers obtained by atomic layer deposition on porous silicon and silicon oxide surfaces

45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

49

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

TURDALIYEV TEMUR KAMILOVICH

**G'OVAK KREMNIY VA KREMNIY OKSIDI SIRTIDA ATOM
QATLAMLAB CHO'KTIRISH USULIDA OLINGAN TiO_2 VA ZnO
NANOQATLAMLARINING STRUKTURAVIY VA OPTIK XOSSALARI**

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AVTOREFERATI

TOSHKENT-2025

Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/FM1213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash web - sahifasida (www.iplt.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurov Xatam Baxronovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuritdinov Izzatillo
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Quvondiqov Vahobjon Ortiqovich
fizika-matematika fanlari doktori, kat.i.x

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat
Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel: (99871) 262-31-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

X.B. Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

I.D.Yadgarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi
f-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi
f-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlaridan boshlab nanomateriallar fizikasi hamda nanotexnologiyalar sohalari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, sensorlar, atrof-muhitni monitoring qilish, biomeditsina va fotonika kabi yo'nalishlarda yuqori faollikka, aniq boshqariladigan tuzilmaga hamda murakkab yuza geometriyasiga ega bo'lgan funksional materiallarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida sintez texnologiyalari takomillashtirilmogda, va yangi avlod materiallarini yaratish muhim ilmiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bunday materiallar qatorida keng taqiqlangan sohaga ega bo'lgan yarimo'tkazgich oksidlar - TiO_2 , ZnO hamda yuqori sirt yuzasi tuzilmasiga ega g'ovak kremniy kabi moddalar alohida ahamiyat kasb etadi. TiO_2 va ZnO moddalari o'zlarining yuqori foto-katalitik faolligi, keng optik oraliqdagi nur yutish qobiliyati, dielektrik xossalari hamda nurlanish energiyasini zaryadlangan holatlarga o'zgartirish imkoniyati bilan ajralib turadi. G'ovak kremniy katta sirt yuzasiga ega yarim o'tkazgich sifatida, TiO_2 va ZnO bilan tandemi natijasida hosil qilingan nanokompozit materiallar sensorlar, fotoelektrik qurilmalar, foto-detektorlar va foto-katalizga asoslangan tizimlarda keng qo'llash imkonini beradi.

Yupqa qatlamlar texnologiyasida hosil qilingan materialning fizik, optik va elektron xossalari faqat uning kimyoviy tarkibiga emas, balki qatlamning tuzilishi, faza holati, qalinligi va eng asosiysi - qo'llanilgan sintez usuliga ham bevosita bog'liqdir. ALD texnologiyasi, murakkab mikro geometriyaga ega yuzalarda qoplamalarni atom darajasida yuqori aniqlik bilan hosil qilish imkonini beradigan zamonaviy sintez usuli. ALD usulida aniq morfologik, elektrofizik va optik xossalarga ega bo'lgan TiO_2 hamda ZnO nanoyupqa qatlamlarini sintez qilish jarayonlarini tadqiq qilish bugungi kunda nanomateriallar yo'nalishida ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim vazifaga aylangan.

ALD usulida sintez qilingan TiO_2 va ZnO nanoqatlamlar, bir tomondan, atomar aniqlikdagi yuza strukturasi, birxil va nazoratlik qalinlik, kam defektli mikrotuzilish kabi xossalarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan — sintez parametrlari orqali fazaviy holati, kristallik darajasi va funksional markazlar miqdorini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu sababli, ALD usulida sintez qilingan TiO_2 va ZnO qatlamlarining g'ovak kremniy, kremniy va kremniy oksidi kabi tagliklar bilan tandem tuzilmalari fizik, optik, sensor va foto-katalitik xossalarini tadqiq qilish — hozirgi kunda materialshunoslik, sensorlar va funksional qo'llanmalar sohaslarida ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 larda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2789-sonli Farmoni va 2019-yil 22-avgustdagi "Xo'jalik va maxsus sohalarda energiya samaradorligini oshirish, energiyani tejash texnologiyalarini joriy etish va qayta tiklanadigan energiya

manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor choralar to'g'risida"gi PF-4422-sonli Farmonlarida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga hissa qo'shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur dissertatsiyaning tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: ALD — «Atomic Layer Deposition» texnologiyasi ilk bor 1970-yillarda finlyandiyalik olim Tuomo Suntola tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, u qatlam-qatlam reaksiyalar asosida yupqa qatlamlar sintez qilishga asoslanadi. Suntola va uning hamkasblari atom qatlamli epitaksiya (ALE) usulini ishlab chiqib, elektr-lyuminessent displeylar uchun dielektrik plyonkalar olishda muvaffaqiyatli qo'llashdi ("United States Patent," US4058430). Shuningdek, shu davrda SSSRda V.B. Aleskovskiy va S.I. Kolsovlar tomonidan "молекулярное наложение" deb ataluvchi o'xshash yondashuv taklif etilgan.

1990-yillarga kelib, ALD texnologiyasi butun dunyo bo'ylab ilmiy tadqiqot markazlarida faol o'rganila boshlandi. AQShda Stiven Jorj (Kolorado universiteti), Greg Parsons (Shimoliy Karolina universiteti), Markku Leskelya (Xelsinki universiteti) kabi yetakchi olimlar ALD usulini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular tomonidan ALD orqali turli materiallarni, xususan TiO_2 , Al_2O_3 va ZnO qatlamlar yuqori aniqlikda sintez qilish, ularning tuzilmaviy, optik va elektronika xossalari boshqarishga oid fundamental ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunga kelib, ALD bo'yicha faoliyat yurituvchi xalqaro ilmiy jamoa shakllangan va 2001-yildan boshlab ALD konferensiyalari tashkil etib kelinmoqda.

TiO_2 qatlamlari ALD orqali sintez qilishda ko'p hollarda titan atomlari manbai sifatida $TiCl_4$ yoki organik titan izopropoksidi qo'llaniladi. Xususan, $TiCl_4/H_2O$ jufti $100-200\text{ }^\circ\text{C}$ haroratda amorf yoki anataz fazali TiO_2 qatlamlarini berishini J. V. Klaus va S. M. Jorj o'z ishlarida isbotlashgan. ZnO qatlamlari uchun asosan dietilsink va H_2O yoki O_3 plazmasi qo'llaniladi. Bu jarayonning turli parametrlari va xossalari ilk bor Y. Niinisty, M. Ritala, M. Leskelya tomonidan o'rganilgan. Oxirgi yillarda ZnO va TiO_2 ALD-qatlamlariga Al, Ga, In va boshqa elementlarni kiritish orqali shaffof o'tqazuvchi qatlam materiallarini va ko'rinish sohasida aktiv fotokatalik qatlamlarni olish keng o'rganilmoqda.

ALD texnologiyasining murakkab sirt strukturalarga nisbatan yuqori konform qoplash qobiliyati, uni nanotexnologiyada dolzarb yo'nalishga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, g'ovak kremniy modifikatsiyasida ALD usuli katta ahamiyatga ega. Kremniyda g'ovaklar hosil bo'lishi fenomeni ilk bor Uxlir (1956) tomonidan tasodifan aniqlangan, lekin bu hodisa Kanxem (1990) tomonidan foto-lyuminessensiya xususiyati aniqlangandan so'ng katta e'tibor uyg'otgan. Voos va Delaland (1993), Kenxem (2020) kabi tadqiqotchilar kvant o'lchamdagi effektlar g'ovak kremniyning fotonikadagi imkoniyatlarini asoslab berishgan.

G'ovak kremniy yuzasining yuqori reaksiyon faolligi tufayli ALD orqali uning ichki devorlarini ham yuqori birxillikda, selektiv qoplash mumkin. Bunday konform qoplamalar asosida g'ovak kremniy tuzilmasini TiO_2 va ZnO qatlamlari bilan modifikatsiya qilish orqali noyob optoelektron xossalarga ega kompozit

geteroqatlamlar hosil qilish imkoniyati ilk bor Vang va hammualliflari tomonidan (2015) namoyish etilgan. Pavlenko va hammualliflar (2020) tomonidan ALD usuli orqali ZnO qatlamlari bilan modifikatsiya qilingan g'ovak kremniy asosida biofotonika sohasi uchun mos keluvchi nanokompozitlar yaratilib, ularning lyuminessensiya xossalari va yuza morfologiyasi chuqur tahlil qilingan. Suniga-Islas va hammualliflar (2025) g'ovak kremniy yuzasini metall nanozarralar bilan bezatilgan TiO₂ qatlamlari bilan qoplash orqali fotokatalitik faolligi yuqori bo'lgan gibrid tuzilmalarni hosil qilishga erishganlar.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda dastlabki ishlar A.I. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida olib borilmoqda. Jumladan, makro- va mikrog'ovak kremniy, quyosh panellari kremniy plastinalari, sapfir va boshqa turdagi tagliklarda TiO₂ va ZnO qatlamlarini termal va plazmali ALD usullarida sintez qilish, fazaviy holatini XRD va RAMAN spektroskopiyaga yordamida o'rganish, hamda ellipsometriya usuli bilan material optik konstantalarni aniqlash bo'yicha Amaliy nanotexnologiyalar laboratoriyasida ishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya ishi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq, IL-5421101842 "Nanokatalizatorlar: shakillanishi, strukturasi, o'lchov effektlari va ularning uglerod nanomateriallari sintezi jarayonlariga ta'siri" nomli fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: MakroG'K, kremniy, kvarts tagliklar sirtida ALD usulida TiO₂ va ZnO qatlamlarini sintez qilish, hamda ularning morfologik, strukturaviy, optik xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, sintez muhiti va keyingi termik ishlov berishning fazaviy o'zgarishlarga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

- makrog'ovakli kremniy olish texnologiyasini amalga oshirish va olingan namunalarni morfologiyasini tadqiq qilish bilan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

- tayyorlangan tagliklarga, TiO₂ va ZnO yupqa qatlamlarini termik ALD usulida sintez qilish;

- olingan namunalarning morfologiyasi, strukturaviy va optik xossalarni raman spektrometriyasi, rentgen tahlili, optik yutilish spektroskopiyasi va atom kuchli mikroskopiyasi yordamida o'rganish;

- qatlamlar qalinligi va optik xossalarni spektral ellipsometriya usulida tadqiq qilish uchun qatlam modelini ishlab chiqish va tahlil qilish;

- TiO₂ fazaviy holatining termik ALD jarayonidagi taglik harorati, qatlamning strukturaviy va optik xossalarga ta'sirini tadqiq qilish;

- sintez qilingan TiO₂ qatlamlarida termik ishlov berish natijasidagi fazaviy o'tish jarayonlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti: G'ovak kremniy, tekis monokristall kremniy, kvarts shisha tagliklar va ular sirtida ALD usuli orqali sintez qilingan TiO₂ va ZnO nanoqatlamlari.

Tadqiqot predmeti: TiO₂ va ZnO nanoqatlamlarining ALD usulida sintezi, ularning g'ovak kremniy, tekis kremniy va kvars tagliklardagi morfologiyasi, fazaviy holati va strukturaviy o'zgarishlari, hamda spektral ellipsometriya, Raman spektroskopiya, XRD, SEM va AFM usullari orqali tahlil qilingan.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya ishida quyidagi zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi: nanoqatlamlarni hosil qilish uchun ALD usuli; g'ovak kremniy namunalarini tayyorlash uchun monokristall kremniyni elektrokimyoviy usulda o'yish texnologiyasi; olingan qatlamlarning tarkibi va fazasini o'rganish uchun rentgen difraksion faza tahlili, Raman spektroskopiyasi va energiyaga dispersiya rentgen spektrometriyasi; morfologiyani tahlili maqsadida skanerlovchi elektron mikroskopiya va atom kuchli mikroskopiyasi; fotolyuminessensiya spektroskopiyasi, optik spektrofotometriya va ellipsometriya usullar optik xususiyatlarni tadqiq qilish uchun qo'llandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- ilk bor dietilsink va suv yordamida termik ALD usulida, taglik harorati 200°C bo'lgan sharoitda, makrog'ovak va tekis kremniy tagligida qalinligi ~50 nm bo'lgan ZnO qatlamlari sintez qilinganda, vyursit fazasiga tegishli geksagonal nanokristall tuzilmaning izotrop polikristal holda shakllanishi aniqlandi;

- ilk bor titan izopropoksidi va suv yordamida termik ALD usulida, makrog'ovak va tekis kremniy tagligida 225°C taglik haroratida qalinligi ~100 nm bo'lgan TiO₂ qatlamlari sintez qilinganda, tarkibida anataz fazasi mavjud bo'lgan izotrop polikristall tuzilma shakllanishi aniqlandi;

- ilk bor 240-1000 nm spektral oraliqda ALD usulida sintez qilingan TiO₂ va ZnO qatlamlarining optik konstantalarini yuqori aniqlikda aniqlash, shuningdek defekt energetik sohalar ulushini hisobga olish imkonini beruvchi Taus-Lourens umumlashgan funksiyasi asosidagi uch ossilyatorli qatlam modeli ishlab chiqildi;

- ilk bor titan izopropoksidi va suv yordamida termik ALD usulida sintez qilingan TiO₂ qatlamlarida fazaviy o'tish jarayonlarining qalinlikka bog'liqligi aniqlandi. Xususan, qalinligi 250 nm gacha bo'lgan qatlamlar 1000°C gacha bo'lgan haroratda yuqori termik barqarorlikka ega ekani tajribada isbotlandi;

- ilk bor termik ALD usulida sintez qilingan amorf TiO₂ qatlamlariga keyingi termik ishlov berish natijasida, strukturada amorf tuzilmadan anataz va rutil fazalariga o'tish jarayonlari, morfologiyada zichlashish va mikroyoriqlar hosil bo'lishi, shu bilan birga, optik yutish sohasida lokal energetik holatlar ulushining kamayishi va qizil tarafga siljishi, hamda optik konstanta qiymati sikllar soniga bog'liq emasligi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari: ALD usulida sintez qilingan TiO₂ va ZnO qatlamlari uchun spektral ellipsometriya ma'lumotlarini tahlil qilishda optik konstantalar va qalinlikni yuqori aniqlikda aniqlash imkonini beruvchi qatlam modeli ishlab chiqildi. Ushbu model 240-1000 nm spektral oraliqda dielektrik funksiyani hisobga olishda asosiy energetik holatlar bilan birga defekt sathlar ulushini ham to'liq aks ettiruvchi Taus-Lourens umumlashgan funksiyasiga asoslangan. Model qatlamlarning optik konstantalarini yuqori aniqlikda hisoblash imkonini berdi va tahlil natijalarining real struktura bilan mosligini ta'minladi.

Yuqori termik barqaror anataz fazasi olinishi eksperimental tasdiqlandi — 225 °C da ALD orqali 250 nm gacha sintez qilingan TiO₂ qatlamlarda anataz fazasi hosil qilinib, keyinchalik 1000 °C gacha bo‘lgan termik ishlovlarda ham uning ustuvorligi saqlanishi aniqlandi. Bu natija, yuza passivatsiyasi, fotokataliz va nur qaytarishni kamaytirish kabi amaliyotlarda termik barqaror TiO₂ qoplamalarini qo‘llash uchun muhim asos bo‘ladi. ZnO va TiO₂ qatlamlarining g‘ovak remniy strukturalarida yuqori konformlik bilan hosil qilinishi ko‘rsatildi — ALD usuli orqali makrog‘ovakli kremniy tagliklarda sintez qilingan ZnO va TiO₂ qatlamlar g‘ovak devorlari va kanallarini birxil qalinlikda, mukammal konformal qoplashini ta‘minlashi isbotlandi. Bu, sensor, fotokatalizator va "aqli qoplama" texnologiyalari uchun murakkab geometriyali 3D tuzilmalarda samarali qoplama hosil qilish imkonini yaratadi. TiO₂ qatlamlarining strukturaviy amorf, amorf/kristall va toza kristall holati kombinatsiyalari sintez parametrlari aniqlanib, ularning funksional qo‘llanish imkoniyatlari asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: zamonaviy standartlashtirilgan usullar va qo‘shimcha tadqiqot usullarini qo‘llash, yuqori aniqlikdagi asboblardan foydalanish, shuningdek, aniq statistik natijalar olish uchun yetarli miqdorda eksperimental ma‘lumotlarning borligi bilan asoslanadi. Natijalarning ishonchliligi, shuningdek, zamonaviy eksperimental texnologiyani qo‘llash va olingan natijalar va boshqa mualliflarning ma‘lumotlari bilan muvofiqligiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: G‘ovak kremniy tagliklarda termik ALD usulida sintez qilingan TiO₂ va ZnO qatlamlarining fazaviy holati, morfologiyasi va optik xossalari to‘g‘risida kompleks tahlillar amalga oshirildi. Bu natijalar asosida turli haroratlarda va sikllar sonida sintez qilingan qatlamlarda anataz va vyursit kabi kristall fazalarning hosil bo‘lishi, ularning yuza topografiyasi va spektroskopik xossalari tadqiq qilindi. Spektral ellipsometriya usuli uchun TiO₂ va ZnO qatlamlarining geterogen modellari ishlab chiqildi. Modellar tajriba ma‘lumotlari bilan yuqori darajada mos kelib, qatlam qalinligi, yutilish koeffitsiyenti va taqiqlangan soha kengligini aniqlashda yuqori aniqlikni ta‘minladi. Bu esa spektral modellashning amaliy qurilmalarda qo‘llanilishiga zamin yaratdi. Amaliy jihatdan, ALD texnologiyasining yuqori konformal qoplamalar hosil qilish qobiliyatidan foydalanib, tekis va g‘ovak tagliklarda birxil yupqa qatlamlar sintez qilish imkoniyatlari namoyon etildi. Sintez qilingan TiO₂/G‘K va ZnO/G‘K kompozitlari sensorlarda, fotokataliz, biomeditsina, fotoelektr qurilmalarda, shu jumladan, quyosh elementlarida va muhitni tozalash tizimlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan funksional materiallar sinfiga kiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan foydali modelga patent olindi (“Gaz sensorlari uchun sezgir materialdan qoplamaning olish usuli” № FAP 2698 18.11.2024). Gaz sensorlari uchun sezgir material sifatida ALD usulida sintez qilingan TiO₂ qatlamlarini qo‘llashni ko‘zda tutuvchi foydali model, sensorlar uchun taglik sifatida dielektrik materiallar yuzasida yupqa, birxil, yuqori tozalikka ega qatlamlarni hosil qilish imkoni beradi.

ALD usuli orqali makrog'ovak kremniy tagliklarda olingan TiO₂ qatlamlarning morfologiyasi va optik xossalarini tadqiq etishga bag'ishlangan maqola: "Morphology and optical characteristics of TiO₂ nanofilms grown by atomic-layer deposition on a macroporous silicon substrate" (Journal of Applied Spectroscopy. 2024. Vol. 91. No. 4. pp. 769–774. DOI: 10.1007/s10812-024-01783-z) natijalariga xalqaro tadqiqotchilar tomonidan, qator maqolalarda (Shengxi Jiao and Zhenqiu Gao, Opt. Mater. Express 15, 541-554 (2025), Nedelin, S.V., Zolotovskii, N.A., Voronin, A.S. et al., Bull. Russ. Acad. Sci. Phys. 88, (2024), A.A. Rakhimov, I.Kh. Khudaykulov, A.A. Ismatov, M.M. Adilov, East European Journal of Physics, N3, 2025) havola qilingan.

TiO₂ qatlamlarini termik ALD usulida titan izopropoksidi va suv yordamida olish hamda keyingi termik ishlov berish natijasida qatlamlardagi strukturaviy o'zgarishlar va fazaviy o'tish jarayonlarini aniq tavsiflash bo'yicha olingan natijalar "SGD Systems" MChJ tomonidan 2024–2025 yillarda olib borilgan "Tibbiyotda qo'llaniladigan maxsus implantlar" amaliy dasturi bajarilishida tatbiq etilgan ("SGD Systems" MChJ shaklidagi korxonasi 2025 yil 20 avgustdagi №20/08 ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish umurtqa implantlarini biobarqaror TiO₂ qoplamalari bilan qoplash, 3D printerda olingan implantlar sirtiga TiO₂ yotqizish orqali ularning inson organizmiga biologik moslashuvchanligini ta'minlash, shuningdek, suyak o'rnini bosish jarayonida mexanik chidamlilik va yuqori harakatchanlikni oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi: mazkur tadqiqotning natijalari 15 ta xalqaro ilmiy-texnik va ilmiy amaliy anjumanlarda aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan 4 ta xorijiy va 4 ta respublika ilmiy jurnallarda nashr etilgan, hamda 1 ta O'zbekiston Respublikasi patenti olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi: dissertatsiya tarkibiy tuzilishi kirish, beshta bob, xulosa, 186 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi, 61 ta rasm va 10 ta jadval qo'shimcha qilinadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiya kirish qismida dissertatsiya mavzusining ahamiyati va dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari haqida ma'lumot berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyati ta'riflangan, natijalarning ishonchligi, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi, ishning aprobatiya natijalari va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida g'ovak kremniy yuzasidagi TiO₂ va ZnO nanoqatlamlar asosidagi kompozit materiallarning xossalari va ularni sintez qilishga oid ilmiy tadqiqotlar holati tahlil qilingan. G'ovak kremniy tagliklarining tuzilishi, yuqori ichki yuza maydoni va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlari yoritilgan.

Oksidlik qatlamlar bilan modifikatsiyalangan g'ovak kremniy asosidagi kompozitlarning fotoaktiv, sensor va biomeditsina sohalaridagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. TiO₂ va ZnO qatlamlarini olish usullari, xususan, ALD texnologiyasining afzalliklari va parametrlari tahlil etilgan. Shuningdek, ALD orqali olingan qatlamlarning taglik bilan o'zaro ta'siri, o'sish xususiyatlari va strukturasi ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida umumiy xulosalar keltirilgan.

Ikkinchi bob «Ishlatilgan boshlang'ich materiallarning xossalari, tajriba va tadqiqot usullari» dissertatsiyada qo'llanilgan boshlang'ich materiallarning to'liq tavsifi, tadqiqot obyektlarini tayyorlash jarayonlari, ularga nisbatan amalga oshirilgan texnologik ishlov berish usullari hamda turli fizik tahlil vositalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Kremniy asosidagi tagliklarning yuzasini tayyorlash, g'ovak kremniy tuzilmalarini hosil qilish uchun elektrokimyoviy anodlash usuli, TiO₂ va ZnO nanoqatlamlarini atom qatlamlab cho'ktirish usuli orqali sintez qilish jarayonlari atroflicha tavsiflangan. Tayyorlangan namunalarning tuzilish, fazaviy holat va yuza morfologiyasini baholash uchun skanerlovchi elektron mikroskopiya, XRD, Raman, ultrabinafsha-ko'rinish soha spektroskopiyasi va ellipsometriya kabi tahlil usullarining texnik xususiyatlari va qo'llash tartibi bayon etilgan.


Uchinchi bob «G'ovak kremniy olish va uning morfologiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash» elektrokimyoviy anodlash usulida g'ovak kremniy tuzilmalarini hosil qilish jarayoni va bu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy texnologik omillar tadqiq etilgan. Elektrokimyoviy o'yish jarayonida hosil bo'ladigan g'ovak kremniy tuzilmasining shakllanishi va xossalari, bir qator texnologik va fizik parametrlar - elektrolit eritmasi tarkibi, o'yish vaqti, tok zichligi hamda kremniy tagligining elektr-fizik xususiyatlari bilan belgilanadi. Jarayonni aniq va barqaror amalga oshirish maqsadida maxsus elektrokimyoviy o'yish qurilmasi loyihalashtirilib, ishlab chiqildi. Tajriba jarayonida nano va makro tuzilmali g'ovak kremniy namunalari elektrokimyoviy anodlash usuli orqali sintez qilindi. Har ikki holat uchun ham HF, etanol va suvning 1:1:1 hajmdagi aralashmasidan iborat elektrolit tayyorlandi. Nanog'ovak tuzilmalar uchun 15 mA/sm² tok zichligida 15, 30, 60 va 120 soniya davomida o'yish qilindi (3.1 rasm).



3.1 rasm. Nanog'ovak kremniy yuzasi va ko'ndalang kesimi SEM tasvirlari

Makrog'ovak tuzilmalar uchun esa 36 mA/sm² tok zichligida 10 va 20 daqiqa o'yish amalga oshirildi. SEM tahliliga ko'ra, nanog'ovak kremniyda namunalarda g'ovaklar 10-40 nm diametrda, zich va tarmoqlangan holda tarqalgan. Umumiy g'ovaklik darajasi taxminan 75% ni tashkil etdi. Makrog'ovak kremniy


namunalarining morfologiyasi 3.2-rasmda tasvirlangan namuna yuzasi va ko'ndalang kesim SEM tasvirda keltirilgan.




3.2 rasm. Makrog'ovak kremniy sirti va ko'ndalang kesimi SEM tasvirlari

Namunaning yuzasi birxil tarzda zich joylashgan, asosan doirasimon shakldagi g'ovaklar bilan qoplangan. G'ovaklar diametri 1.8–2.8 mkm oralig'ida. Umumiy g'ovaklik darajasi taxminan 55%. Ko'ndalang kesim SEM tasvirlaridan g'ovaklar aniq vertikal yo'nalgan va silindrsimon ekanligi kuzatildi.

To'rtinchi bob «ALD usulida olingan TiO₂ va ZnO qatlamlarining strukturaviy va optik xossalari». 4.1-rasmdagi ko'ndalang kesim SEM tasvirlari, g'ovak kremniy tagliklarda TiO₂ qatlami vertikal kanallarini to'liq va konform qoplagani ko'rinadi va qatlam qalinligi, taxminan 94 nm ni tashkil etgan. 4.1 (b) rasmdagi SEM tasvirda, tekis taglikda qatlam yuza bo'ylab birxilligi ko'rinadi.




4.1-rasm. G'ovak (a) va tekis (b) kremniy namunalari ko'ndalang kesimi SEM tasvirlari;




4.2-rasm. G'ovak kremniy taglikda sintez qilingan TiO₂ ko'ndalang kesimi SEM tasvirlari.

Yuqorida keltirilgan 4.2-rasmda g'ovak kremniy va tekis sirtga ega monokristall kremniy tagliklar turli hududlarida o'lgangan qatlam qalinliklari ko'rsatilgan va ular o'rtacha taxminan 95 nm tashkil etadi. Barcha holatlarda TiO₂ qatlami g'ovak kremniy kanallarida, shuningdek, tekis sirt yuzasida bir xil konform qoplama hosil qilgani tasdiqlanadi. Tekis taglikda sintez qilingan qatlamning 5 × 5 mkm o'lchamdagi yuza topografiyasi va profili AKM usuli bilan o'rganildi (4.3-rasm). Yuza relefi parametrlari standart g'adir-budurlik formulalari asosida aniqlandi. Hisoblash natijalari, 5 mkm uzunlikdagi topografiyadan qatlam yuzasining o'rtacha arifmetik og'ishi $R_a=2,4$ nm, maksimum va minimum nuqtalar orasidagi farqi esa $R_z=10,97$ nm ni tashkil etdi.



4.3-rasm. 225 °C haroratda sintez qilingan TiO₂ AKM tasviri va profili.




4.4-rasm. TiO₂ qatlamning EDS tahlili.

TiO₂ qatlamining element tarkibi tahlili: SEM va EDS usuli bilan tahlil qilindi. Tahlil uchta nuqtada, kremniy tagligi ichki qismida, taglik qatlam chegarasida va qatlam sirtida amalga oshirildi (4.4-rasm). Sirtida titan va kislorod aniqlanib, qatlam titan oksididan tashkil topgani tasdiqlandi. Qatlamda fluor, uglerod, xlor kabi yot elementlar aniqlanmadi. Bu ALD jarayonidagi prekursor tarkibidagi

organik va noorganik guruhlar qatlamda qoldiqlar qoldirmaganini anglatadi.

TiO₂ qatlamining strukturaviy xususiyatlari: TiO₂ turli fazaviy holatlarda anataz, rutil, brukit yoki amorf shaklda bo‘lishi mumkin. Qatlamning fazaviy tarkibi sintez sharoiti, harorat, qalinlik va taglik xususiyatlariga bog‘liq. 4.5-rasmdagi Raman spektrida 143, 194, 392 va 637 sm⁻¹ da piklar aniqlangan. Anataz fazasiga xos bo‘lib, Eg va B1g modalariga to‘g‘ri keladi. 520 sm⁻¹ dagi yuqori intensiv cho‘qqi esa taglikdagi kremniyga tegishli bo‘lib, anatazning 513 va 517 sm⁻¹ dagi cho‘qqilarini yutib yuborgan. XRD tahlilda ICSD ma‘lumotlar bazasiga tayanilib, 4.5-rasmdagi XRD difraktogramma (qora chiziq) anataz fazasiga tegishli ICSD 83795 ma‘lumotlari (qizil chiziq) bilan taqqoslandi.




4.5-rasm – TiO₂ qatlamning Raman spektri va XRD difraktogrammasi

Moslik koeffitsiyenti 0.33 bo‘lib, namunada anataz fazasi hosil bo‘lganini ko‘rsatadi. Polikristall materiallarda kristallitlar turli yo‘nalishda joylashadi, shu sababli difraksiya chiziqlari statistik intensivlikka ega bo‘ladi va etalon ma‘lumotlar bilan mos keldi. 4.1-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, kristallit o‘lchamlari o‘rtacha 40-70 nm oralig‘ida ekanligi aniqlandi.

Jadval 4.1 TiO₂ namunasi XRD taxlili natijalari


N ₂	2θ, °	d, (Å)	h k l	YaBK °	D, (nm)	Namuna norm. intensivligi %	ICSD 83795 norm. int. %
1	25,32	3,51	1 0 1	0,1972	41,4	100,00	100,00
2	36,98	2,43	1 0 3	0,2599	32,2	6,71	6,30
3	38,60	2,33	1 1 2	0,1601	52,5	7,78	6,90
4	48,07	1,89	2 0 0	0,1219	71,3	29,12	26,50
5	55,10	1,67	2 1 1	0,1956	45,8	18,62	15,80

Quyidagi 4.6-rasmda tekis, peramidal va g'ovak kremniy tagliklarda sintez qilingan ZnO qatlamlarining ko'ndalang kesimi SEM tasviri keltirilgan.




4.6 rasm. Tekis, peramidal va G'ovak tuzilmaga ega bo'lgan kremniy taglik sirtiga sintez qilingan ZnO qatlamlarining ko'ndalang kesimi SEM tasviri.


ZnO qatlami taglikda konform qoplangan bo'lib, bo'shliq yoki de-laminatsiya kuzatilmaydi. Qatlam qalinligi taxminan 48 nm. 4.7-rasmda tekis taglikda sintez qilingan ZnO qatlamlarining 50×30 mkm AKM topografiyasi keltirilgan. Yuza profili bo'yicha qatlamlar o'rtacha g'adir-budurligi 2,1 nm, maksimumlar farqi 21,97 nm ekanini ko'rsatdi. EDS tahlili qatlam tarkibida O, Zn va Si mavjudligini ko'rsatib, ZnO hosil bo'lganini tasdiqladi (4.8 rasm).



4.7 rasm. ZnO qatlamlarining AKM topografiyasi



4.8 rasm. sintez qilingan ZnO qatlamlarining element tarkibi



4.9 rasm. ZnO namunasi Raman spektri va XRD difraktogrammasi

4.9 rasmdagi 433 sm^{-1} cho‘qqi ZnO qatlamiga to‘g‘ri kelib, uning vyursit strukturada ekanini ko‘rsatadi. XRD difraktogramma ICSD 98547 raqamli ZnO vyursit fazasi bilan solishtirildi, asosiy cho‘qqilar (100), (002) va (101) tekisliklarga to‘g‘ri keluvchi 31.65° , 34.59° va 36.44° burchaklarda aniqlandi. Qo‘shimcha cho‘qqilar (102), (110), (103) va (112) tekisliklarga mos bo‘lib, ular etalon ma’lumotlar bilan mos keladi. Natijalar qatlamda ZnO ning kristallik vyursit fazasi mavjud ekanini, boshqa kristall fazalar aniqlanmaganini tasdiqlaydi. 4.2-jadvalda cho‘qqilarga mos Miller indeksleri, intensivlik va kristallit o‘lchamlari keltirilgan.

Jadval 4.2 ZnO namuna XRD tahlili natijalari

N ₂	2θ °	d Å	h k l	YaBK °	D nm	Namuna norm. intensivligi %	ICSD 98547 norm. int. %
1	31,65	2,83	1 0 0	0,60	137,62	23,17	51
2	34,59	2,59	0 02	1,6	52,00	91,39	32,6
3	36,44	2,46	1 0 1	1,14	73,37	100,00	100
4	48,09	1,89	1 0 2	2,8	31,05	55,60	18,3
5	56,71	1,62	1 1 0	2,1	42,99	71,08	31,7
6	63,09	1,47	1 0 3	3,1	30,07	20,73	31,5
7	68,45	1,36	1 1 2	3,1	30,99	45,00	21,4

TiO₂ va ZnO qatlamlarining optik xususiyatlarini spektral ellipsometriya usulida modellashtirish: Yupqa qatlamlarning optik xususiyatlarini aniqlashda ellipsometriya to‘g‘ri va perpendikulyar qutblangan yorug‘likning material sirtidan qaytgandagi o‘zgarishini o‘lchaydi. Qutblangan yorug‘lik komponentlari orasidagi bog‘lanish quyidagi nisbat orqali aniqlanadi:

$$\rho = \frac{r_p}{r_s}$$

Bu nisbatni ellipsometriya burchaklari ko‘rinishida yozish mumkin:

$$\rho = \tan(\psi) e^{i\Delta}$$

Ellipsometriya teskari masalasini yechishda mazkur nisbat qatlamning kompleks dielektrik funksiyasiga bog‘liqligi ko‘rinishida yozish mumkin:

$$\rho = \tan(\psi) e^{i\Delta} = f(\varepsilon_1(E), \varepsilon_2(E))$$

TiO₂ va ZnO materiallari xususiyatlaridan kelib chiqib, dielektrik funksiyasini Taus-Lourens umumlashgan tenglamasidan kelib chiqqan qatlam modeli yordamida aniqlash maqsadga muvofiq. Bunda dielektrik funksiyaning mavhum qismi uchun:

$$\varepsilon_2(E) = \begin{cases} \frac{AE_0\Gamma(E-E_g)^2}{E[(E-E_g)^2+(\Gamma E)^2]}, & E > E_g \\ 0, & E \leq E_g \end{cases}$$

Haqiqiy qismi uchun Kramers-Kronix tenglamasiga asosan aniqlanadi:

$$\varepsilon_1(E) = \varepsilon_\infty + \frac{2}{\pi} P \int_{E_g}^{\infty} \frac{x\varepsilon_2(x)}{x^2-E^2} dx$$

Tahlil natijalariga ko'ra, qatlam kristall, amorf va turli defektli qismlardan tashkil topgan. Bunday geterogen tuzilma turli energiya diapazonlarida yutish hodisalarini yuzaga keltiradi. Kristall qismlar uchun yutilish holatlari yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, defektlar qatlamda alohida energetik holatlarni paydo qiladi. Shu sababli, mavhum dielektrik funksiyani kristall va defekt holatlar uchun alohida ossilyatorlar yig'indisi sifatida ifodalash mantiqan to'g'ri. Bu har bir fazaning umumiy funksiyaga qo'shgan hissasini aniqlab, qaysi holat ustun ekanini va ularning nisbiy ulushini baholash imkonini beradi. Qatlam modeli uchun mavhum dielektrik funksiya quyidagicha yoziladi:


$$\varepsilon_2(E) = \begin{cases} \frac{A_A E_{0A} \Gamma_A (E-E_{gA})^2}{E[(E^2-E_{0A}^2)^2+(\Gamma_A E)^2]} + \frac{A_k E_{0k} \Gamma_k (E-E_{gk})^2}{E[(E^2-E_{0k}^2)^2+(\Gamma_k E)^2]} + \frac{A_d E_{0d} \Gamma_d (E-E_{gd})^2}{E[(E^2-E_{0d}^2)^2+(\Gamma_d E)^2]}, & E > E_{gA}, E > E_{gk} \\ \frac{A_k E_{0k} \Gamma_k (E-E_{gk})^2}{E[(E^2-E_{0k}^2)^2+(\Gamma_k E)^2]} + \frac{A_d E_{0d} \Gamma_d (E-E_{gd})^2}{E[(E^2-E_{0d}^2)^2+(\Gamma_d E)^2]}, & E_{gA} \geq E > E_{gk} \\ \frac{A_A E_{0A} \Gamma_A (E-E_{gA})^2}{E[(E^2-E_{0A}^2)^2+(\Gamma_A E)^2]} + \frac{A_d E_{0d} \Gamma_d (E-E_{gd})^2}{E[(E^2-E_{0d}^2)^2+(\Gamma_d E)^2]}, & E_{gk} \geq E > E_{gA} \\ \frac{A_d E_{0d} \Gamma_d (E-E_{gd})^2}{E[(E^2-E_{0d}^2)^2+(\Gamma_d E)^2]}, & E \leq E_{gA}, E \leq E_{gk} \end{cases}$$

Har bir ossilyatorning umumiy mavhum dielektrik funksiyaga qo'shgan hissasi, ya'ni optik faolligini foizdagi ulushini quyidagicha hisoblanadi:

$$P_i = \frac{A_i \cdot C_i}{\sum_{j=1}^n A_j \cdot C_j}$$

Modellash natijasining ishonchligi o'rtacha kvadratik xatolik baholash quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$MSE = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N (y_i^{exp} - y_i^{teor})^2$$




4.10 rasm. TiO_2 qatlamli namunaning tahlili

TiO_2 qatlami spektral ellipsometrik tahlili: 240-1000 nm to'lqin uzunlikda TiO_2 qatlamli namunaning ellipsometrik burchaklari 70° tushish burchagida o'lchandi. Optik parametrlarni aniqlash uchun uch ossilyatorlik model asosida moslash amalga oshirildi. Approksimatsiya natijasi 4.10 rasmda ko'rsatilgan. TiO_2 qatlami uchun approksimatsiya orqali aniqlangan model parametrlari va har bir ossilyatorning hisoblangan qiymatlari 4.3 jadvalda keltirilgan.

Qatlam sindirish ko'rsatkichi maksimumi 300 nm to'lqin uzunligida 2,55 ga yaqin bo'lib, to'lqin uzunligi oshgan sari 1,9 gacha kamayadi va 1000 nm atrofida barqarorlashadi. Yutilish faqat ultrabinafsha sohada sezilarli bo'lib, ko'rinarli sohada deyarli kuzatilmaydi (4.11 rasm).

Jadval 4.3 TiO₂ qatlami uchun approksimatsiyasi ko'rsatkichlari


Qalinlik	GPC=0,19nm	E _{ga}	A _a	E _{0a}	C _a	P
94,57 nm		3,299	78,66	4,394	1,332	96.17%
ε ₁ (∞)		E _{gk}	A _k	E _{0k}	C _k	
2.40266		2,757	0,718	4,965	4,095	2.7%
MSE		E _{gd}	A _d	E _{0d}	C _d	
1.253	0,997	4,979	1,110	0,248	1.12%	



4.11-rasm. TiO₂ qatlam uchun $n(\lambda)$, $k(\lambda)$ va Taus ekstrapolyatsiyasi orqali aniqlangan E_g natijalari.

Taus usuli bo'yicha α - $h\nu$ grafigi tahlili qatlamning taqiqlangan soha kengligi 3,38 eV ekanini ko'rsatdi.

ZnO qatlami spektral ellipsometrik tahlili: ZnO qatlami uchun ham TiO₂ qatlamida qo'llanilgan Taus-Lorens umumlashgan funksiyasi asosidagi uch ossilyatorlik model qo'llanildi (4.13 rasm). Grafik natijalarga ko'ra, ZnO qatlam 250-400 nm oralig'ida kuchli yutishga ega bo'lib, 400 nm dan keyin yo'qoladi. Sindirish ko'rsatkichi 390 nm atrofida yuqori bo'lib, keyin pasayadi. Taqiqlangan soha kengligi $(\alpha h\nu)^2 = h\nu$ ekstrapolyatsiyasi orqali aniqlanib, 3,11 eV deb baholandi.



4.13-rasm. ZnO qatlamli namunaning ellipsometrik burchaklari va aniqlangan k va n ning λ ga bog'liqligi.


4.4-jadval. ZnO qatlamining approksimatsiya natijalari

Qalinlik	GPC=0,119nm	E _{gw}	A _w	E _{0w}	C _w	P
47,78 nm		3,168	129,524	3,3196	0,2705	36.65%
ε ₁ (∞)		E _{gk}	A _k	E _{0k}	C _k	
2.2094		1,0324	1,28	3,9669	1,4258	1.91%
MSE		E _{gd}	A _d	E _{0d}	C _d	
1.1145	2,4758	18,908	5,7830	3,1056	61.42%	

Beshinchi bob «ALD usulida olingan TiO₂ qatlamlarining sintez harorati va keyingi termik ishlov berish natijasidagi fazaviy o'tish jarayonlarini o'rganish» Termik ALD jarayonida harorat prekursorlarning faolligi, yuzadagi adsorbsiya va mahsulotning fazasiga kuchli ta'sir qilib, TiO₂ qatlamning fazaviy

holati va kristall tuzilishi sintez harorati va keyingi termik ishlovga bog‘liq. TTIP va H₂O prekursorlari yordamida 200-275 °C oralig‘ida, 25 °C qadam bilan sintez qilingan TiO₂ qatlamlar o‘rganildi. Taglik sifatida 0,4 mm qalinlikdagi kremniy va 1 mm JGS1 kvarts shisha plastinalar ishlatildi.

Olingan namunalarning sirt morfologiyasi: 5.1-rasmda qatlamlarning 5×5 mkm AKM topografiyasi va profili keltirilgan.



5.1 rasm. 200–275 °C haroratlarda ALD usulida sintez qilingan TiO₂ qatlamlarning 5 × 5 mkm maydondagi AKM topografiya tasvirlari


Topografiya tasvirlariga ko‘ra, harorat oshgan sari yuza morfologiyasi izchil o‘zgargani kuzatildi. 200 °C da yuza deyarli tekis bo‘lib, aniq tuzilmalar yo‘q. 225 °C da esa mayda mikrotuzilmalar paydo bo‘ladi.

